Yevropa Ittifoqining eng rivojlangan davlatlari qatorida Germaniya davlat xaridlarini tashkil etishda katta tajribaga ega. Mamlakatning davlat xaridlarini koʻrib chiqish tizimi Yevropa Ittifoqi talablariga javob beradi, lekin oʻziga xos xususiyatlarga ega, jumladan, ikkita instansiya: mustaqil muassasa tomonidan shikoyatlarni koʻrib chiqish va sud tomonidan boshqariladigan nizolarni hal qilish usuli. Har ikki instansiya tomonidan chiqarilgan ajrimlar hamma uchun ochiq boʻlib, davlat xaridlarini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Biroq shu oʻrinda haqli savol tugʻiladi: davlat xaridlari jarayonida tuzilgan shartnomalar huquqiy tabiatiga koʻra qanday tavsiflanadi? Ushbu jarayonda shartnoma tuzish erkinligi prinsipi qanday amal qiladi? Xarid qilish tartib-taomillari asosida tuzilgan

shartnomalarni qaysi turkum shartnomalar tarkibiga kirita olamiz?

Mazkur maqolada yuqoridagi savollarga javob berish orqali davlat xaridi shartnomasining nafaqat fuqarolik-huquqiy tabiati, balki ma'muriy-huquqiy jihatlari ham tahlil qilinib, shartnoma instituti doirasida maxsus tur sifatida taklif qilinadi. Davlat xaridi shartnomasini maxsus shartnoma turi sifatida baholash mazkur shartnomalarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish orqali davlat xaridlari tizimini yanada shaffof va samarali qilishga hissa qoʻshadi.

Adabiyotlar tahlili doirasida davlat xaridi shartnomasi tushunchasi turli olimlar qarashlari boʻyicha tahlil qilindi. Bu jarayonda V. Kikaves, F.A. Tasalov, G.L. Albano, O. Oqyulov, N. Imomov, Q. Mehmonov kabi olimlarning fikrlari oʻrganildi. Qiyosiy tahlil asosida milliy va xalqaro qonunchilik, jumladan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Davlat xaridlari toʻgʻrisida Kengash tavsiyalari, Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi UNCITRAL model qonuni, Yevropa Ittifoqining Davlat xaridlari boʻyicha direktivasi kabi hujjatlar tahlil qilindi.

**Material va metodlar**

Maqolada davlat xaridlari shartnomasining huquqiy tabiati Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi, shuningdek, yuridik soha olimlarining ilmiy qarashlariga asosan tahlil qilinib, maxsus shartnoma turi sifatida yoritib berilgan.

Mavzuni tadqiq qilish mobaynida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

*Empirik metod* – davlat xaridlari shartnomalarining milliy qonunchilikdagi huquqiy asoslari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotdagi qoʻllanishini tahlil qilishda qoʻllandi. Bu orqali mavjud me'yorlarning samaradorligi va amaliyotdagi muammolari aniqlanadi.

*Tarixiy metod* – davlat xaridlari institutining shakllanishi va rivojlanishini oʻrganishda qoʻllanib, shartnomaviy munosabatlarning huquqiy tabiatini izohlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

*Qiyosiy-huquqiy metod* – Oʻzbekiston qonunchiligi va xalqaro tajriba (UNCITRAL Model qonuni, Yevropa Ittifoqi direktivalari, OECD tavsiyalari) oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlashda qoʻllandi. Bu yondashuv milliy tizimni takomillashtirish boʻyicha amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalari**

Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari toʻgʻrisida"gi Qonuniga binoan, davlat xaridlari toʻgʻrisidagi shartnoma deb, davlat buyurtmachisi va davlat xaridlari ijrochisi oʻrtasidagi davlat xaridlari boʻyicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, oʻzgartirish yoki bekor qilish toʻgʻrisidagi kelishuvga aytiladi. Ushbu ta'rif Fuqarolik kodeksidagi shartnomaga berilgan ta'rif bilan oʻxshash, biroq davlat xaridlari shartnomasining subyektlari aniq koʻrsatilgan. Demak, davlat xaridlari shartnomasi tuzish uchun bir tomondan davlat buyurtmachisi va ikkinchi tomondan ijrochi huquqiy munosabatga kirishishi lozim.

Davlat xaridlari jarayoni, jumladan, davlat xaridlari shartnomalarini tartibga solishda bir qator xalqaro hujjatlar mavjud boʻlib, davlat xaridlariga doir Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligini ishlab chiqishda mazkur huquqiy hujjatlar asos boʻlib xizmat qilgan. Jumladan, 2015-yil 18-fevralda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi Kengash tavsiyalarida davlat xaridlariga "zarur boʻlgan narsalarni aniqlash, bu ehtiyojni ta'minlash uchun eng yaxshi shaxs yoki tashkilot kimligini belgilash, zarur boʻlgan narsalarni toʻgʻri joyga, kerakli vaqtda, eng yaxshi narxda yetkazib berish va bularning barchasi adolatli hamda ochiq tarzda amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan jarayon" deya ta'rif berilgan [3].

Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi UNCITRAL model qonuniga koʻra, xaridlar yoki davlat xaridlari – xarid qiluvchi tashkilot tomonidan

tovarlar, qurilish yoki xizmatlar sotib olish, xarid shartnomasi esa xarid qilish jarayoni yakunida buyurtmachi va yetkazib beruvchi (yoki yetkazib beruvchilar) yoki pudratchi (yoki pudratchilar) oʻrtasida tuzilgan shartnomani bildiradi [4]. Yevropa Ittifoqining Davlat xaridlari boʻyicha direktivasi esa davlat xaridlari shartnomasini "oʻzida mulkiy manfaatlarni ifoda etgan bir yoki bir nechta iqtisodiy operatorlar va bir yoki bir nechta hokimiyat organlari oʻrtasida ishlarni bajarish, mahsulot yetkazib berish, xizmat koʻrsatish maqsadida yozma shaklda tuzilgan shartnoma" deb ta'riflaydi [5].

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qiladigan boʻlsak, shartnoma tushunchasi biroz kengroq yoritilgan. Masalan, Rossiya federatsiyasi qonunchiligiga koʻra, shartnoma – yozma shaklda tuzilgan va predmeti tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar koʻrsatish (shu jumladan, koʻchmas mulkni sotib olish yoki mulkni ijaraga berish) boʻlgan va budjet muassasasi, davlat yoki munitsipal unitar korxona yoki boshqa yuridik shaxs tomonidan tuzilgan davlat yoki munitsipal shartnoma yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma hisoblanadi [6].

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari toʻgʻrisida"gi Qonuni UNCITRAL Model qonuni va YI direktivalarining asosiy tamoyillariga (oshkoralik, raqobat, korrupsiyaga qarshi mexanizmlar) mos keladi. OECD tavsiyalarida koʻrsatilgan shaffoflik, elektronlashtirish, budjet mablagʻlaridan samarali foydalanish kabi yoʻnalishlar ham qonunda oʻz aksini topgan. Biroq milliy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari va shartnomalarni bevosita raqobatsiz usullar orqali tuzish amaliyoti xalqaro me'yorlardan biroz chetga chiqadi.

Davlat xaridlari shartnomalarining huquqiy tabiati haqida yuridik soha olimlari turlicha qarashlarga ega. Jumladan, mahalliy olimlarning fikricha, davlat xaridi deganda, davlat ehtiyojlari uchun tovar, xizmat va ishlarning toʻliq yoki qisman budjet mablagʻlari evaziga sotib olinishi tushuniladi. Davlat xaridlarining asosiy vazifalari davlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur boʻlgan tovar, xizmat va ishlarni oʻz vaqtida, kerakli sifat va narxda ta'minlashdan tashqari, raqobatni rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishni oʻz ichiga oladi [7].

Huquqshunos V.V. Kikaves davlat xaridlarini tartibga solish mexanizmida ommaviy huquq ustunligi sabab davlat xaridlari shartnomasi ommaviy-huquqiy tabiatga ega, deb ta'kidlaydi [8]. F.A. Tasalovning fikricha, davlat xaridlari shartnomasi mahsulot yetkazib berish shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, pudrat kabi shartnomalarni oʻz ichiga olgan shartnomaning maxsus turidir [9]. Professor G.L. Albano esa "davlat xaridlari shartnomasi fuqarolik huquqi mantigʻi asosida tuziladi, biroq jamoat manfaati mavjudligi uni fuqarolik va ma'muriy shartnomalar oʻrtasidagi gibrid shartnoma turiga oʻzgartiradi", deb qayd etadi [10].

Bizning fikrimizcha, G.L. Albano qarashlarida davlat xaridi shartnomasi tushunchasi kengroq yoritilgan. Unga koʻra, davlat xaridi shartnomasi – fuqarolik-huquqiy shartnomaning maxsus turi boʻlib, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatining yuqoriligi sababli ma'muriy-huquqiy choralar bilan tartibga solinadi va shu jihatdan oddiy fuqarolik shartnomalaridan farq qiladi. Biroq milliy huquqshunos olimlar tomonidan davlat xaridlari huquqiy mexanizmlari hali yetarlicha oʻrganilmagan boʻlib, bu sohada yanada chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, davlat xaridlari – bu davlat budjeti mablagʻlaridan samarali va shaffof tarzda foydalanishni ta'minlovchi tizim boʻlib, unda davlatning yirik iste'molchi sifatidagi roli hisobga olinadi. Shu bilan birga, raqobat muhitini cheklamaslik, ayrim shaxslarga asossiz imtiyozlar bermaslik hamda davlat tomoni-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

dan o'z faoliyatini nazorat qilish orqali erkin bozor tamoyillariga putur yetkazmaslik kabi mezonlar muhim o'rin tutadi.

Davlat xaridlari shartnomasi ta'rifi xalqaro va milliy qonunchilikda, asosan, o'xshash bo'lib, yangi tahrirdagi Qonun xalqaro miqyosda e'tirof etilgan normalarni o'zida mujassam etadi. Umuman olganda, davlat xaridlari shartnomasining mavjud bo'lishi uchun munosabatlarda bir tomonda davlat, ikkinchi tomonda esa yuridik yoki jismoniy shaxs ishtirok etishi lozim.

Quyida davlat xaridlari shartnomasining fuqarolik-huquqiy shartnomalardan asosiy farqlari tahlil qilinadi.

*Shartnoma tuzish erkinligi prinsipi.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga (keyingi o'rinlarda – "FK") muvofiq, fuqarolik qonunchiligining asosiy prinsiplaridan biri – bu shartnoma tuzish erkinligidir. Fuqarolik qonunchiligi aynan ushbu prinsipga tayangan holda shakllantirilgan.

Professor F. Zokirovning fikricha, shartnomada tomonlarning erk-ixtiyori to'liq ifodalanadi. Chunki shartnomaga kirishayotgan shaxs kim bilan, qancha miqdorda va qachon shartnoma tuzish, yetkazib berilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari, tovarlar yoki ashyolarni qaysi muddatda va qanday transport vositalarida yetkazilishi, shuningdek, to'lovning qaysi shaklda amalga oshirilishini mustaqil ravishda belgilaydi [11].

Shartnoma tuzish erkinligi tamoyili FKning 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Biroq aynan shu moddaga bu qoidani istisno etuvchi norma ham kiritilgan, ya'ni qonunda nazarda tutilgan hollarda taraflar majburan shartnoma tuzishlari mumkin (masalan, ommaviy shartnoma). Davlat xaridlari jarayonida tuziladigan bitimlar ham majburiy ravishda tuziladigan shartnomalar toifasiga kiradi, xususan, xarid qilish tartib-taomillarida g'olib bo'lgan ishtirokchi bilan davlat buyurtmachisi shartnoma tuzishga majbur. Faqat "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollardagina davlat buyurtmachisi asoslantirilgan sabablarni ko'rsatgan holda, shartnoma tuzishdan bosh tortish huquqiga ega. Jumladan, 2025-yil 12-fevral kuni Bekobod tumanlararo sudi tomonidan ko'rib chiqilgan 4-1106-2401/3168-sonli iqtisodiy ishda "O'zmetkombinat" AJ tomonidan lotning asossiz ravishda bekor qilingani aniqlanib, korxonaga "Mec Techniks" MCHJ bilan shartnoma tuzish majburiyati yuklatilgan.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqa fuqarolik huquqi subyektlari kabi istalgan vaqtda istalgan shaxs bilan istalgan bahoda shartnoma tuza olmaydi. Binobarin, davlat organlari va tashkilotlari budjet mablag'laridan moliyalashtiriladi, bu esa, o'z navbatida, resurslardan oqilona va samarali foydalanishni talab qiladi.

*Subyektlar.* Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat xaridi shartnomasining tomonlari davlat buyurtmachisi va ijrochidir. Davlat buyurtmachisi deganda, davlat organlari, budjet tashkilotlari (budjet buyurtmachilari) yoki ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar (korporativ buyurtmachilar) tushuniladi. Ikkinchi tomon esa mahsulot sotish, xizmat ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni o'z zimmasiga olgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, ishtirokchi, tanlov g'olibi yoki ijrochi sifatida qatnashadi. Shunday qilib, davlat xaridi shartnomasi tuzilishi uchun kamida bir tomonda davlat buyurtmachisi bo'lishi talab etiladi.

Shuningdek, har qanday shaxs bilan ham mazkur shartnoma tuzilmaydi. Qonunchilik ikkinchi taraf uchun ham ayrim o'ziga xos talablar belgilaydi. Jumladan, davlat xaridlari jarayonida ishtirok etish uchun ishtirokchi shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslari hamda boshqa resurslarning mavjudligi, shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik, soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi,

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining maʼlumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari boʻyicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi toʻgʻrisida maʼlumotlar taqdim etishi shart. Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik boshqa fuqarolik shartnomalari uchun ham tegishli boʻlsa-da, qarzdorlik mavjud emasligi, moddiy-texnik imoniyatlar mavjudligi kabi talablar boshqa shartnomalarda uchramaydi.

Bundan tashqari, yana bir guruh ijrochilar toifasi borki, ular bilan faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina bitim tuzish mumkin. Bular davlat buyurtmachisiga affillangan shaxslar boʻlib, mazkur cheklov manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish, raqobatni cheklamaslik, ayrim shaxslarga imtiyoz berishdan tiyilish, barcha bozor ishtirokchilariga teng imkoniyatlar yaratishga imkon beradi. Aynan shu jihat ham davlat xaridlari shartnomasida maʼmuriy-huquqiy elementlar mavjudligini bildiradi. Bu qoidalar davlat buyurtmachisini istalgan shaxs bilan shartnoma tuzish imkoniyatini cheklaydi, budjet mablagʻlaridan foydalanishda mansab vakolatlarini suiisteʼmol qilishning oldini oladi.

*Shakl.* Davlat xaridlari shartnomalari tuzilish shakliga koʻra, elektron va yozma turlarga boʻlinadi. Biroq xalqaro standartlarga muvofiq, shartnomalar elektron shaklda tuzilishi lozim. Jumladan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi Kengash tavsiyalari elektron davlat xaridlari barcha ishtirokchilar uchun ochiq boʻlib, maʼlumotlarni real vaqtda olish imkonini yaratishini, korrupsiya xavfini kamaytirib, oshkoralik va shaffoflikni oshirishini taʼkidlaydi. Shuningdek, elektron tarzda shartnoma tuzish kichik biznesni xarid jarayonlariga jalb qilishni taʼminlab, tadbirkorlik subyektlariga butun respublika boʻylab ishtirok etish imkonini beradi, bu esa, oʻz navbatida, raqobat muhitini kuchaytiradi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizim ortiqcha byurokratiya, vaqt va mablagʻni tejaydi hamda xarajatlarni optimallashtiradi.

Davlat xaridlari hukumat uchun strategik boshqaruv va xizmatlar koʻrsatishning muhim ustunidir. Xarajatlar hajmi inobatga olingan holda, hukumat davlat xizmatlari koʻrsatish sifatining yuqori darajasini taʼminlash va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat xaridlarini samarali hamda yuqori standartlarga muvofiq amalga oshirish majburiyatiga ega.

Strategik maqsadlarda foydalanilsa, davlat xaridlari iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, davlat sektorini samaraliroq qilish, jamiyat va iqtisodiyotni yanada birlashtirish hamda institutlarni ishonchli qilishga yordam beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan davlat xaridlari tizimi atrof-muhitni muhofaza qilish, innovatsiyalar, ish oʻrinlari yaratish, kichik va oʻrta korxonalarni rivojlantirish kabi dolzarb siyosiy maqsadlariga erishishga ham hissa qoʻshishi mumkin. Shu sababli ochiq va shaffof davlat xaridi amalga oshirilishi muhimdir.

Hozirda mamlakatimizda davlat xaridlari shartnomalari elektron tarzda xarid.uzex.uz, xt-xarid.uz, cooperation.uz, tender.mc.uz kabi platformalar orqali tuzilmoqda. Bir vaqtning oʻzida turli platformalarning mavjud boʻlishi davlat xaridlari boʻyicha maʼlumotlarning markazlashtirishga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Davlat xaridlari tizimini markazlashtirish va davlat organlari bilan integratsiyasini joriy qilish borasida Janubiy Koreya tajribasi Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan eʼtirof etilgan. Koreyaning onlayn elektron xaridlar tizimi (KONEPS) Koreyadagi davlat xaridlari jarayonini qamrab oluvchi keng qamrovli, integratsiyalashgan elektron xaridlar platformasidir. U 2002-yilda davlat muassasalari va yetkazib beruvchilar oʻrtasidagi korrupsiyaning oldini olish hamda xaridlar jarayonida qogʻoz shartnomalar bilan bogʻliq ortiqcha xarajatlarni kamaytirish maqsadida ishga tushirilgan.

KONEPS OECD doirasidagi eng ilgʻor


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

elektron davlat xaridlari platformalaridan biri sifatida o‘zining ko‘lami va qamrovi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim Koreyada davlat xaridlarining samaradorligi, shaffofligi va yaxlitligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. 2025-yil yanvar holatiga ko‘ra, KONEPS davlat va xususiy sektorning 227 ta tashqi tizimlari, jumladan, Ichki ishlar va xavfsizlik vazirligi, turli moliya institutlari, biznes birlashmalari va Koreya Fiskal axborot xizmatining Dbrain tizimi bilan o‘zaro bog‘langan. Mazkur integratsiya orqali tizim savdo va shartnomalar tuzish jarayonida zarur bo‘lgan biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomalar, soliq to‘lash sertifikatlari (ham munitsipal, ham milliy), kafolat xatlari, malaka skrining hujjatlari va korporativ reyestrlarning tasdiqlangan nusxalari kabi muhim hujjatlar va sertifikatlarni avtomatik ravishda olish hamda almashish imkonini beradi. Ushbu bog‘liqlik kompaniyalar uchun ma’muriy yukni sezilarli darajada kamaytiradi hamda umumiy samaradorlik va ma’lumotlar ishonchliligini oshiradi [12].

Boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farqli o‘laroq, qonunchilik davlat xaridlari shartnomalarining tuzilish shakliga aniq talablar belgilaydi hamda tomonlarning erkin tanlov imkoniyatlarini cheklaydi. Elektron davlat xaridlarining joriy etilishi eng past narxlarda sifatli tovarlarni xarid qilish imkonini yaratmoqda, barcha jarayonlarning elektron tarzda hujjatlashtirilishi esa javobgarlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Biroq qonunchilikda belgilangan holatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish mumkin. Garchi davlat xaridlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarda tanlovsiz shartnomalar tuzishning qat’iy qoidalari belgilangan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzish imkoniyati korrupsion holatlarga sabab bo‘lmoqda. Masalan, 2024-yilda budjet buyurtmachilari tomonidan 825 616 ta shartnoma raqobatli usullar orqali tuzilgan bo‘lsa, 546 332 ta shartnoma raqobatsiz usullar asosida tuzilgan. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda markazlashtirilgan yagona davlat xaridlari tizimini yaratish lozim.

*Insofsiz ijrochilar.* Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikda “insofsiz ijrochi” degan o‘ziga xos huquqiy tushuncha mavjud bo‘lib, bu holat boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalarda uchramaydi. Xarid qilish tartib-taomillariga muvofiq, tanlovda (tenderda) g‘olib bo‘lgan ishtirokchi shartnoma tuzish majburiyatiga ega. Agar u asossiz sabablarga ko‘ra, shartnoma tuzmasa yoki boshqa shaklda bu majburiyatdan bo‘yin tovlagan taqdirda, insofsiz ijrochilar reyestriga kiritiladi. Ushbu reyestr Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yuritiladi. Unga kiritilgan shaxslar ikki yil davomida davlat xaridlarida ishtirok etish huquqidan mahrum etiladi.

Bundan tashqari, majburiyatlarni bajarmaganlikda yoxud tegishli tarzda bajarmaganlikda belgilangan tartibda aybdor deb topilgan ijrochilar, davlat xaridlari jarayonida yolg‘on yoki soxta hujjatlar taqdim etgan, ayni bitta lotda ishtirok etgan affillangan shaxslar yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma’lumotlarni ochib bermagan ishtirokchilar, sudning qaroriga ko‘ra, firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan ijrochilar insofsiz ijrochi hisoblanadi.

Garchi vakolatli organ tomonidan insofsiz ijrochilar ro‘yxati yuritilishi va real vaqt rejimida yangilanib borishi lozim bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar davlat xaridlari rasmiy portalida ushbu reyestr shakllantirilmagan. Biroq 2025-yil 18-aprel kuni “Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom kuchga kirdi va ushbu hujjat davlat mablag‘lari yo‘qotilishining oldini olish, shartnomaviy majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta’minlash, majburiyatni bajarmaganlik uchun jazolovchi choralar ishlashida muhim asos bo‘lib xizmat qilishiga umid qilamiz.

*Shartnomaning o‘zgartirilishi.* Shartnoma mohiyatiga ko‘ra, tomonlarning xohishlarini

oʻzida ifoda etgan hujjatdir. Shartnoma erkinligi prinsipiga muvofiq, shartnoma tomonlarning kelishuviga koʻra oʻzgartirilishi mumkin. Ammo davlat xaridlari shartnomalariga oʻzgartirish kiritish odatdagi fuqarolik shartnomalaridan farqli ravishda, jiddiy cheklovlar bilan chegaralangan. Xususan, “Davlat xaridlari toʻgʻrisida”gi Qonunda oʻzgartirishlarning aniq chegarasi sanab oʻtilgan. Tomonlar xarid qilish tartib-taomili natijasi boʻyicha tuzilgan shartnomaga oʻzgartirishlar kiritishi mumkin, faqat bu shartnoma tovar (ish, xizmat), uning sifati va assortimentini oʻzgartirishi, miqdori va bahosini oshirishi hamda yetkazib berish muddatini uzaytirishi bilan bogʻliq boʻlmasligi kerak. Bunday tartib davlat mablagʻlaridan oqilona foydalanish, shaffoflik va raqobat tamoyillarini himoya qilishga qaratilgan.

**Xulosalar**

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, davlat xaridi shartnomasi fuqarolik-huquqiy va maʼmuriy-huquqiy elementlarni oʻzida mujassamlashtirgan oʻziga xos huquqiy shakldir. Davlat buyurtmachisi shartnoma tarafi sifatida ishtirok etishi davlat xaridi shartnomasining huquqiy tabiatiga sezilarli taʼsir koʻrsatib, shartnoma erkinligi prinsipini muayyan darajada cheklaydi va maʼmuriy qoidalar joriy etilishini talab qiladi. Shunday ekan, davlat boshqa fuqarolik huquqi subyektlaridan farqli ravishda fuqarolarga nisbatan alohida majburiyatlarga ega boʻlib, jamiyat manfaatlari va iqtisodiyot rivojlanishini taʼminlash maqsadida davlat xaridlari jarayonida mustahkam huquqiy qoidalar oʻrnatishi zarur.

Davlat xaridi shartnomasi boshqa shartnomalardan subyektlari, tuzilish shakli, shartnomani oʻzgartirish tartibi va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Fuqarolik shartnomalarida predmet aniq belgilangan: masalan, pudrat shartnomasida ish bajarilishi, ijara shartnomasida esa obyekt ijaraga berilishi koʻzda tutiladi. Biroq davlat xarid shartnomasining predmeti qonunda taqiqlanmagan har qanday tovar, ish yoki xizmatlarni qamrab olishi mumkin. Davlat buyurtmachisi ishlab chiqarish uchun zarur xomashyodan tortib xodimlarga tibbiy xizmat koʻrsatishgacha boʻlgan shartnomalarni xarid qilish tartib-taomillari asosida tuzadi. Shu sababli davlat xaridi shartnomasining predmeti juda keng qamrovli boʻlib, fuqarolik huquqidagi deyarli barcha shartnomalarni oʻz ichiga oladi, deb aytish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridi shartnomalarini fuqarolik huquqining maxsus institutlaridan biri sifatida nazariy jihatdan ajratish, unga oid huquqiy normalarni tizimlashtirish va amaliyotga yoʻnaltirilgan, aniq shakllangan shartnoma turlarini qonunchilikda alohida tartibda mustahkamlash tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, davlat xaridlari tizimi nafaqat huquqiy tartibga solish mexanizmi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni taʼminlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur tizim xarid jarayonlarida shaffoflikni oshirish, korrupsion xavflarni kamaytirish, xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun raqobat muhitini rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu omillar ilmiy xulosalarning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Shuningdek, ilgari surilgan takliflarning tatbiqi davlat budjeti mablagʻlaridan samarali foydalanish, kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash hamda xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh xarid tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

## REFERENCES

1. Axborot va tahliliy sharhlar [Information and analytical reviews]. Available at: https://www.imv.uz/activity/markaziy-apparat/davlat-xaridlari-departamenti
2. Davlat xaridlari statistikasi [Public procurements statistics]. Available at: https://xarid.mf.uz/
3. Recommendation of the Council on Public Procurement. Available at: https://www.oecd.org/gov/public-procurement/recommendation
4. UNCITRAL Model Law on Public Procurement. Available at: https://uncitral.un.org
5. Directive 2014/24/EU on Public Procurement. Available at: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0024
6. The Russion Federal Law "On the Contract System in the Sphere of Procurement of Goods, Works, Services for State and Municipal Needs". Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_144624/
7. Oqyulov.O., Imomov.N., Mehmonov Q. Shartnoma tuzish [Drafting contracts]. Tashkent, TSUL Publ., 2021, p. 140.
8. Kikavets V.V. Administrativno-pravovoe regulirovanie gosudarstvennogo zakaza v Rossiyskoy Federatsii [Administrative and Legal Regulation of Public Procurement in the Russian Federation]. Available at: http://lawtheses.com/administrativno-pravovoe-regulirovanie-gosudarstvennogo-zaka-za-v-rossiyskoy-federatsii
9. Tasalov F.A. Kontraktnaya sistema v sfere gosudarstvennykh zakupok Rossii i SShA: sravnitel'no-pravovoe issledovanie [The Contract System in the Sphere of Public Procurement in Russia and the USA: A Comparative Legal Study]. Moscow, Prospekt Publ., 2016, p. 240.
10. Albano G.L., Sparro M. Flexible strategies for centralized public procurement. Available at: https://www.researchgate.net/publication/227471639_Flexible_Strategies_for_Centralized_Public_Procurement
11. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil Law]. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 335.
12. Davlat xaridlarining raqamli transformatsiyasi [Digital transformation of public procurement]. Available at: https://www.oecd.org/en/publications/digital-transformation-of-public-procurement_79651651-en.html
13. Asqarov N.I. Nomlanmagan shartnomalar tavsifi, tasnifi, huquqiy tartibga solinishi [Description, classification, and legal regulation of unnamed contracts]. Tashkent, Navruz Publ., 2017, p. 164.
14. Qoryog'diyev B.U. Bitimlar [Agreements]. Tashkent, TSUL Publ., 2024, p. 144.
15. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining subyektlari [Subjects of civil law]. Tashkent, TSIL Publ., 2008, p. 168.
16. Belov V.E. Kontseptual'nye problemy formirovaniya i funktsionirovaniya kontraktnoy sistemy v sfere zakupok v Rossii [Conceptual Problems of the Formation and Functioning of the Contract System in the Field of Procurement in Russia]. Moscow, Justitsinform Publ., 2018, p. 472.
17. Reimarova H. Transaction Costs in Public Procurement. Prague, Charles University Publ., 2012, p. 100.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES


Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2025-yil 3-son**

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3